

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

№ 40-AL.3-18
2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirining
2023 yil 21 avgust dagi
sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan.

“Tarbiya”

yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

TOSHKENT – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvoqatlashuvchi kengashning 2023 yil 11-sonli kengashmonatidagi bilan ma'qullangan

Tuzuvchilar: Tayanch modullar: Olimov Sh.Sh. - Toshko davlat universiteti pedagogika kafedrasi mudiri p.f.d., professor, Samiyeva Sh.X. - Toshko davlat universiteti pedagogika kafedrasi dotenti, p.f.d.(PhD).

Dr. G. J. van der Vliet is an associate professor, p.f.d.,

Nordlyt chapter	Mentelbekova	Gulbahit	Djoldasbekova	I.f.d., professor, Yevroosiyo mullyi
	Qozog'istonning	L.N.Gumilyov	nomidagi	
	universiteti			

O'quv dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqlanib qabul qilingan
(2023 yil "___" __dagi ___ - sonli bayonnomasi).

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3-dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyundagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tariya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1-iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning tarbiya fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, asosiy tushunchalari, metodologiyasi, asosiy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, tarbiya texnologiyalari va ularni qo'llash, tarbiya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Ijtimoiy jamiyatda tarbiya.
- 1.2. Tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.
- 1.3. Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish.
- 1.4. Yo'nalishga oid dolzarb masalalar tahlili.
5. Yakuniy nazorat

Kursning maqsadi va vazifalari

“Tarbiya” yoʻnalishi boʻyicha akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning oʻquv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada taʼminlashlari uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini taʼminlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- pedagog xodimlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda "Tarbiya" fanini o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maqsadi hamda vazifalarini;
- tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlarini;
- tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishini;
- ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning tamoyillarini;
- ijtimoiy tarbiya jarayonidagi asosiy muammo va ularning yechimini ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion metodlar, vositalarni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- "Ijtimoiy jamiyatda tarbiya" modulini o'qitishning optimal metod va vositalarini qo'llash, turli vaziyatlardan ulardan to'g'ri foydalana olish;
- tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rnini to'g'ri belgilay olish;
- tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va ob'ektiv jarayonlarini an'anaviy va noan'anaviy holda tashkil etish;
- tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va interfaol uslublarni qo'llashni;
- ta'lim oluvchilarni tarbiyalash jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni;
- ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalda qo'llash va foydalana olish;
- tarbiya fanini o'qitishda milliy pedagogikaning tajribalaridan foydalana olish;
- klaster usulida tarbiya fanini o'qitish usul, shakl va vositalarini amalda qo'llay olish;

- tarbiya fanini o'qitishda ilg'or mahalliy va xorijiy pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- tarbiya ijtimoiy fan sifatida jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o'rnini aniqlash;
- tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va ob'ektiv jarayonlarni shakllantirish;
- tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy yondashuvlarga asoslanish hamda ulardan amalda qo'llash;
- tarbiya texnologiyasi va uning tasniflaridan foydalanish;
- tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish texnikasini amalda qo'llash;
- modulni o'qitishda tarbiyaning insonparvarlik, individual va tabaqalashtirilgan texnologiyalarini amalda qo'llash;
- tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlaridan foydalana olish;
- tarbiya fanini o'qitishda ilg'or pedagogik tajribalarni amalda qo'llay olish;
- tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishda bevosita muammolarni aniqlash va ularning yechimiga doir ilmiy yondashuvlarga asoslanish;
- tarbiyada oilaning ta'lim muassasasi bilan o'zaro samarali hamkorligini rivojlantirish tajribalarini amalda qo'llash *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“TARBIYA” YO‘NALISHI BO‘YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Ijtimoiy jamiyatda tarbiya.

Tarbiya - ijtimoiy-pedagogik hodisa va jarayon sifatida. Tarbiya nazariyasining mohiyati, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolari. Ijtimoiy tarbiya tamoyillari.

Tarbiyada ijtimoiylashuv mexanizmlar. Tarbiya fanining jamiyat va shaxs rivojlanishidagi o‘rni. Ijtimoiy tarbiyaning maqsadi va ijtimoiylashuv mexanizmlari. Tarbiyada ijtimoiy madaniy tajribalar, me‘yor va qadriyatlar.

Tarbiyada ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlar va ob‘yektiv jarayonlar. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning roli. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida. Ijtimoiylashuvda tarbiyaning mazmun va mohiyati.

Tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik modeli. Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash masalalari. Tarbiyaning ijtimoiylashuv obekti va sub‘ekti, tarbiyaga an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar. Tarbiyaning insonparvarlashuv tamoyilini amalga oshirishning zamonaviy yo‘llari.

1.2. Tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Tarbiyaviy ishlar va ularni tashkil etish hamda boshqarishning nazariy aspektlari. O‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va loyihalashtirishda innovatsiyalardan foydalanish. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy qoidalari. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishni boshqarish.

Tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar va interfaol uslublarni qo‘llash. Ta‘lim oluvchilarni tarbiyalash jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Tarbiyaviy trenninglar tavsifnomasi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish. Tarbiya jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish. Ta‘lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish texnikasi.

1.3. Tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarish.

“Tarbiya” fanini zamonaviy talablar asosida o‘qitishning ilmiy, metodologik asoslari. “Tarbiya” fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar va o‘ziga xos xususiyatlari. Uzlusiz ma‘naviy tarbiya Konsepsiyasida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlari. O‘zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish tamoyillari.

“Tarbiya” fanining mazmuni va uni klaster usulida o‘qitish. “Tarbiya” fanini o‘qitishda milliy pedagogikaning tajribalariga tayanish. Klaster usulida “Tarbiya” fanini o‘qitish usul, shakl va vositalari. Tarbiya jarayonida o‘qituvchi va murabbiylarning maqomi.

O‘qituvchilar tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va boshqarishga tayyorlash mexanizmlari. Tarbiyaviy ishlar jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlariga nisbatan hurmatni shakllantirish. O‘qituvchilar tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarishda ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlash. Tarbiyada oilaning ta‘lim muassasasi bilan o‘zaro samarali hamkorligini mustahkamlash mexanizmlari.

1.4. Yo‘nalishga oid dolzarb masalalar tahlili.

Tinglovchilar mustaqil ravishda o‘quv modulining dolzarb masalalarini tahlil etib, ularni hal etish usullari to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

1.5. Yakuniy nazorat.

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to‘liq o‘zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan kam ko‘rsatgichga erishgan tinglovchilarga ikki marta qayta topshirish imkoniyati beriladi. Qayta topshirish natijasida onlayn test sinovlaridan 60 foizdan kam ko‘rsatgichga erishgan tinglovchilar kursni o‘zlashtirmagan hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta‘lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish

bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o‘quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o‘rtirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig‘ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o‘tash, iqtidorli va iste‘dodli o‘quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma‘ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o‘quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o‘quv qo‘llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o‘rtirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o‘z ehtiyojlari va tanlovlardan kelib chiqib, onlayn

shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган "Таълим тўғрисида"ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрь "Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизimini янада такомиллаштириш тўғрисида"ги ПҚ-3290-сонли Қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5847-сонли Фармони.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь "Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-6097-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 декабрдаги "Иқтидорли ёшларни саралаб олиш тизими ва академик лицейлар фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПҚ-4910-сон Қарори.
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 июндаги "Академик лицейлар раҳбар ва педагог ходимларининг узлуксиз малакасини ошириш тизimini жорий этиш тўғрисида" 296-сон Қарори.

14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 июлдаги “Умумий ўрта таълим муассасаларида “Тарбия” фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 422-сон Қарори.
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Ўзбекистон маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори.

III. Maxsus adabiyotlar

16. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2015. – 318 с. <http://science.vvsn.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
17. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. – 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.
18. Гулобод Қудратуллох кизи, Р.Ишмухамедов, М.Нормухаммедова. Анъанавий ва ноанъанавий таълим. – Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази” нашриёти, 2019. 312 б.
19. Муслимов Н.Ава бошқалар. Инновацион таълим технологиялари. Ўқув-методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 б.
20. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2008. – 180 б.
21. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Т.: “Истеъдод” жамғармаси, 2009. – 160 б.
22. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика /Тошкент-2009
23. Топилдиев В. Таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари. - Тошкент: “Университет”. 2015. – 245б.
24. Қуროнов М., Тураев Ш. ва бошқ. Миллий тарбия ва ёшлар дунёқарабини шакллантириш. Ўқув қўлланма, “Мухаррир” нашриёти 2017й. 186.т
25. Кодиров А., Қуროнов М.ва бошқ.Фазилятли авлод: 7-18ёш гача бўлган болаларни тарбиялаш бўйича қўлланма. “Мухаррир” нашриёти 2019 й.
26. Олимов Ш.Ш.. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари. (Монография). –Т.: «Fan va technology», 2015, 228 бет.

IV. Internet saytlar

27. <http://edu.uz> – Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва

инновациялар вазирлиги.

28. <http://lex.uz> – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
29. <http://lib.bimmm.uz> –Бош илмий-методик маркази
30. <http://ziyonet.uz> – Таълим портали Ziyonet
31. <http://natlib.uz>–Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.



"ISHLAB CHIQILGAN":

Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish

Bosh ilmiy-uslubiy markazi

Direktor T.T. Shoymardonov

" " 2023 y.

M.O'.



Buxoro davlat universiteti

Rektor O.X. Xamidov

" " 2023 y.

M.O'.

Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish markazi

Direktor O.X. Xamidov

" " 2023 y.



"KELISHILGAN":

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i

F.T. Esanboboyev

" " 2023 y.

M.O'.